



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SOHASINI RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI

*Qurvonaliyev Jasurbek Qodirjon o'g'li*

*Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura va sirtqi ta'lif fakulteti  
“70420114 – Moliyaviy-huquqiy monitoring” mutaxassisligi magistranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, bu borada qonunchiligidan kiritilayotgan yangiliklar va ularni yanada mustahkamlash uchun qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va ularning ahamiyati haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** manfaatlar to'qnashuvi, antikorrupsiya, reyting baholash, kiber korrupsiya, maishiy korrupsiya, “shaffof qurilish” dasturi.

Davlat va jamiyat boshqaruvini yanada demokratlashtirish hamda modernizatsiya qilish, davlat boshqaruvi sohalarini liberallashtirish sharoitida davlat xizmatchilari tomonidan poraxo'rlik, mansab mavqeini suiste'mol qilish bilan bog'liq jinoyatlarning sodir etilishi davlat hokimiyatining obro'sizlanishiga, davlatning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy tizimiga putur yetishiga, natijada, davlat hokimiyat faoliyati samaradorligining susayishiga sabab bo'ladi. Shu bois, korrupsiya illatiga qarshi kurashish va barham berish siyosati davlat va jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

2017-yil 7-fevralda tasdiqlangan “2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi” da mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashni samarali tashkil etish bo'yicha vazifalar aniq belgilandi. Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlari-ning samaradorligini



oshirish tizimini ishlab chiqish vazifasi ijrosi yuzasidan e'tiborga molik natijalar qo'liga kiritildi.

Davlat organida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini kuchaytirishda "Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida"gi Qonunning qabul qilinishi ham muhim o‘rin tutadi. Mazkur Qonunda davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyati tartibga solinadi. Jumladan, Qonunda davlat fuqarolik xizmati sohasida korrupsiyaga qarshi kurashishga doir chora-tadbirlar, davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalari, manfaatlar to‘qnashuvi, davlat fuqarolik xizmatchisi daromadlarini va mol-mulkini deklaratsiyalash, davlat fuqarolik xizmatchisiga qo‘yilgan talablar o‘z aksini topadi.

Undan tashqari, 2017-yil 2-fevral kuni e’lon qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-2752-sonli qarori mazkur Qonunning samarali ijrosini ta’minlash, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirishga xizmat qildi<sup>1</sup>. Bundan tashqari, mazkur qaror asosida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi tuzilib, uning nizomi va 2017-2018-yillarga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Davlat dasturi tasdiqlandi hamda dastur doirasida muayyan ishlar amalga oshirildi<sup>2</sup>.

Davlat dasturi ijrosi doirasida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-81-sonli qarori ham muhim ahamiyat kasb etdi. Chunki mazkur qaror asosida ilk marotaba davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatiga oid

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017 y., 5-son, 62-modda. (Mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldag“Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-6257-sonli Farmoniga asosan, o‘z kuchini yo‘qotgan)

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldag“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori. //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 5-son, 62-modda.



samaradorlik ko‘rsatkichlarini belgilash va ularni ilg‘or xalqaro standartlar asosida baholash tizimi joriy etildi.

Reyting baholash tizimining 2022-yil 1-fevraldan boshlab, eksperiment tariqasida, o‘z faoliyatida korrupsiyaga qarshi menejment tizimini joriy etayotgan 26 ta davlat tashkilotlari faoliyatiga, 2022-yil 1-iyuldan barcha davlat tashkilotlari faoliyatiga joriy etish belgilandi. Shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengash, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda eksperiment natijalarini chuqur tahlil qilish va muhokama qilish hamda reyting baholash tizimining samarali va to‘liq joriy etilishini ta’minlash bo‘yicha choralarini ko‘rishi nazarda tutildi. Umuman olganda, davlat va tarmoqlar darajasida qabul qilingan dasturlar va qarorlar korrupsiyaga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirishga mustahkam zamin yaratmoqda.

2025-yil 5-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig‘ilishida ishtirok etdi. Davlat rahbari nutqida avvalo, korrupsiyaning omillariga qarshi kurashilmoqda. Masalan, yerni hokim qarori bilan ajratishdan to‘liq voz kechib, auksion tizimiga o‘tkazilgani natijasida bu tizim xalqchil bo‘ldi. “Shaffof qurilish” dasturi joriy etilganidan keyin bu sohada ham ijobjiy o‘zgarishlar sezildi.

Davlat xaridlari bo‘yicha qonun qabul qilingani, tanlov va tender raqamlashib, sog‘lom raqobat bo‘lgani uchun o‘tgan yili 14 trillion so‘m budjet mablag‘i tejaldi.

Bugunga kelib, barcha banklar 100 million so‘mgacha maishiy kreditlarni inson omilisiz 5 daqiqa ichida onlayn berayapti. Natijada oldin bu ish bilan shug‘ullangan minglab bankirlar endi mahallaga tushib, odamlarga loyiha, kredit taklif qilib, mijozini ko‘paytirish bilan ishlayapti.

Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida 10 dan ortiq xizmat turlari to‘liq elektron shaklga o‘tkazildi. Bu sohada murojaatlar soni 2,5 karraga kamaydi.

Oliy ta’lim tizimi ham raqamlashtirildi. Avval test topshirib, to‘plagan balliga qarab, keyin oliyohni tanlash joriy qilindi. 35 turdagи hujjalarni inson omilisiz olishga o‘tilgani uchun sohadagi murojaatlar 2,2 baravar kamaydi.



Yo‘l harakati xavfsizligi inspektori “bodi-kamera”da xizmat o‘tayotgani, avtoraqamlar auksionda sotilayotgani, qog‘ozdagi bayonnomma yo‘q bo‘lgani uchun korrupsiya omillari keskin kamaydi.

Aholi va tadbirkorlarga “xalq xizmatidagi davlat” tamoyili asosida xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi. Xususan, 120 turdagи hujjatlarni talab qilish, 160 dan ortiq litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi. Natijada 200 mingga yaqin yangi tadbirkorlar bozorga kirib keldi. Chet el ishtirokidagi korxonalar qariyb 5 karra oshib, 23 mingga yaqinlashdi.

Elektron davlat xizmatlari soni 15 karra ortib, 721 taga yetdi, ulardan foydalanuvchilar esa, 11 milliondan oshdi.

Eng muhim, bular orqali aholi, tadbirkorlar, xorijiy hamkorlarimiz, xalqaro tashkilotlar va investorlarning islohotlarga ishonchi mustahkamlandi. So‘nggi yetti yilda 120 milliard dollardan ortiq investitsiya kirgani, iqtisodiyotimiz 2 karra o‘sib, o‘tgan yili 115 milliard dollarga yetgani buning isboti.

Prezident korrupsiyaga qarshi kurashish doimiy jarayon ekanini aytib, bu boradagi dolzARB masalalarni va kelgusi vazifalarni ko‘rsatib o‘tdi.

Huquq-tartibot idoralari, asosan, korrupsiyani aniqlash va jazolash bilan ishlab, korrupsiyaviy omillarni tag-tomiri bilan yo‘qotadigan preventiv choralar e’tiborsiz qolayotgani qayd etildi.

Shu bois Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining ish uslubi o‘zgartirilishi belgilandi. Buning uchun, tajriba tariqasida 5 ta – Sog‘liqni saqlash, Qurilish, Suv xo‘jaligi vazirliklari, Neftegaz va Suvta’mnot jamiyatlarining komplayens nazorati agentlikka o‘tkazilishi, shuningdek, tumanlar darajasiga tushib, maishiy va tizimli korrupsiya omillarini chuqur o‘rganadi. Tahlillar asosida aniq choralarni ishlab chiqib, Milliy kengashga taqdim etishi belgilandi<sup>3</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida”gi qaroriga asosan

<sup>3</sup> 2025-yil 5-mart kunidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig‘ilishidagi nutqi. // <https://president.uz/oz/lists/view/7924>

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergen yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarga bir martalik pul mukofotlari, korrupsiyaga oid jinoyatlarni tergov qilish va uni fosh etishda ahamiyatga ega bo‘lgan dalillar haqida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarga xabar bergenlik yoki bunday toifadagi jinoyatlarni tergov qilish yoxud tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishda bevosita ko‘maklashganlik uchun tashakkurnoma yoki esdalik sovg‘alar berish tartibi yo‘lga qo‘yildi. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergen yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslar, ularning oila a’zolari va yaqin qarindoshlarini himoya qilish belgilandi.

Bugungi kunga kelib, korrupsiyaviy jinoyatlarning 75 foizi tuman va mahallada maishiy korrupsiya shaklida sodir etilmoqda. Shu munosabat bilan endi Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlari tarkibi to‘liq yangilanib, ularga viloyat xalq deputatlari kengashi raislari bosh bo‘lishi belgilab qo‘yildi.

Hududiy kengashlar korrupsiyaviy omillarni aniqlab, ularga barham berish uchun qonunchilikni o‘zgartirish, jazo muqarrarligini ta’minlash bo‘yicha Milliy kengashga taklif kiritadi.

Bundan sakkiz yil avval hududlarni kompleks rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyati yo‘lga qo‘ylgan edi. Bu tizim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishga ko‘maklashdi. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda hududlar salohiyati oshdi.

Shu bois endi prokuror, ichki ishlar va soliq rahbarlari sektorlar faoliyati bilan shug‘ullanmasligi belgilandi. Jinoyatchilikning oldini olish, unga qarshi kurashish bo‘yicha qo‘shimcha vazifalar qo‘yildi.

Davlat xaridlarida korrupsiyaning oldini olish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Shu maqsadda Ekspert komissiyasi tuziladi. Ilg‘or tajriba asosida davlat xaridlarida tovarlarning o‘rtacha bozor narxlari ko‘rinib turadigan elektron platforma yaratiladi. Bunda, davlat xaridlarida sotib olinadigan tovar va xizmatlar narxi o‘rtacha bozor narxidan ko‘pi bilan 20 foizdan oshmasligi shart. Ushbu talabni buzganlik uchun qonun bilan javobgarlik va jarimalar joriy qilinadi.

Budget va budgetdan tashqari mablag‘ hisobidan asosiy vositalarni xarid qilish bo‘yicha talablar ham kuchaytirilishi belgilandi. Davlat idoralarining xaridlarida



mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan transport va mebelga ustuvorlik berish zarurligi qayd etildi. Yirik loyihalarni yuqori darajadagi korrupsiyaga qarshi standartlardan kelib chiqib baholash talabi qo‘yildi.

Korrupsiyaning oldini olish – davlat xizmatiga professional va fidoyi kadrlarni tanlash hamda ularni “halollik vaksinasi” bilan emlashdan boshlanadi. Shu bois ishga olishdagi tartib va yondashuvlarni takomillashtirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Davlat xizmatchilar daromadini deklaratsiyalashga oid qonun zarurati qayd etilib, uning loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilishi belgilandi.

Fikri toza, korrupsiyaga toqatsiz yangi avlodni tarbiyalash maqsadida ta’lim maskanlarida halollik g‘oyalarini singdirish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash muhimligi ko‘rsatib o‘tildi.

Davlatimiz rahbari nutqida jamoatchilikka murojaat qilib, korrupsiyaga qarshi kurashish umummilliy vazifa, har bir vatanparvar yurtdoshimizning vijdon ishi ekanini ta’kidladi.

– Hammamiz yagona kuch bo‘lib harakat qilsak, albatta, katta ijobiy samaraga erishamiz. Shu bois mahalla faollari, nuroniyalar, ziyolilar, yozuvchi va shoirlar, san’at va madaniyat xodimlari, tadbirkorlar, taniqli shaxslar, rahbarlar, deputat va senatorlar – umuman butun jamoatchilik birlashib, korrupsiyaga “jamiyat tanasidagi saraton” sifatida qarashi kerak, – dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish. Darslik. // Mas’ul muharrir: A.SH. Bekmurodov: – Toshkent: “Akademiya”, 2022. – 344 b.
2. Berdiyev A.T., Xaydarov M.M., Kuskarov T.R. Korrupsiya jinoyatlari uchun javobgarlik: O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. -152 b.
3. Otajonov A.A. Boshqaruv tartibiga qarshi korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik: O‘quv qo‘llanma. –T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. -58 b.



4. Sottiyev I.A., Hamrayev S.I. Korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarni huquqiy baholash: O‘quv-amaliy qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2008. – 72 b.
5. Tojiboyev Q. Mansab mavqeini suiiste’mol qilish yo‘li bilan o‘zgalar mulkini talon-toroj qilganligi uchun javobgarlik. – Toshkent: TDYUI, 2004. – 64 b.
6. Rustambayev M.H. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Umumiy qism. 1-jild: Jinoyat to‘g‘risida ta’limot. OTM uchun darslik. – T.: «TDYUI» nashriyoti, 2010. – 178-bet.
7. Долгова А. И. Криминология. Учебник для вузов. 2001. С. 347.
8. Максимов С. В. Коррупция. Закон. Ответственность. М. 2008. С. 116.
9. Zufarov R. Poraxo‘rlik – korrupsiya negizi // Davlat va huquq. – 2000. №4. – 41 b.
10. Abdurasulova Q.R. Jinoyatning maxsus subyekti. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: TDYUI, 2005. – B. 6.
11. Zufarov R.A., Axrarov B.J., Mirzayev U.M. Korrupsiya. Qonun. Javobgarlik. Monografiya //Mas’ul muharrir: yu.f.d., prof. M.X.Rustambayev. – T.: TDYUI nashriyoti, 2011. – 168 bet.
12. Zufarov R.A. Poraxo‘rlik uchun jinoiy javobgarlik. Monografiya. – T.: TDYUI, 2004.
13. BMT Bosh assambleyasining 2003-yil 31-oktyabrdagi “Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi” (The United Nations Convention against Corruption (UNCAC))
14. Boydadayev S.A. Korrupsiyaga qarshi kurashning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari. – Toshkent. 2022. 180 b.
15. Mamanov S.S. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida “komplaens-nazorat” tizimining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. – T. 2024. 135 b.
16. Abdullayeva M.E Xalq ta’limi sohasida korrupsiyani oldini olish masalalari. T. 2023. 149 b.